

**BUXORO AMIRLIGIDA ISTIQOMAT QILGAN MILLIY-ETNIK GURUHLAR.****Gulyamov Alisher Azizovich**

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Tarix va filiologiya” kafedrasini o‘qituvchisi.

[aligulyamov1997@gmail.com](mailto:aligulyamov1997@gmail.com)<https://doi.org/10.5281/zenodo.14901939>

**Annotatsiya.** XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ya’ni mang‘itlar sulolasi hukmronligi o‘rnatilgach, Buxoro amirligi yana asta-sekin mustahkamlana boshlaydi. Shu asrning 70-80 yillariga kelib Buxoro amirligining markaziy hududini Samarcand va Buxoro shaharlarini o‘z ichiga olgan Zarafshon vohasi tashkil qilar edi.

**Kalit so‘zlar:** siyosiy parokandalik, aholi zinch joylashgan tumanlar, tojik, mang‘itlar sulolasi hukmronligi, 220 ta mahalla, Turki Jandiy, Qatag‘on, (Hofiz) Qo‘ng‘irot, Durman, Qalmoqon, Uruson, Chubuton.

**NATIONAL AND ETHNIC GROUPS LIVING IN THE BUKHARA EMIRATE.**

**Abstract.** Starting from the second half of the 18th century, that is, after the rule of the Mangid dynasty was established, the Bukhara Emirate gradually began to strengthen again. By the 70s-80s of this century, the central territory of the Bukhara Emirate was the Zarafshan oasis, which included the cities of Samarkand and Bukhara.

**Keywords:** political disunity, densely populated districts, Tajik, rule of the Mangid dynasty, 220 neighborhoods, Turki Jandiy, Qatagon, (Hofiz) Kungirot, Durman, Kalmokan, Urusan, Chubutan.

**НАЦИОНАЛЬНО-ЭТНИЧЕСКИЕ ГРУППЫ, ПРОЖИВАЮЩИЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ.**

**Аннотация.** Начиная со второй половины XVIII века, то есть после установления правления династии Мангит, Бухарский эмират начал вновь постепенно укрепляться. К 1970-1980-м годам центральным регионом Бухарского эмирата был Заравшанский оазис, включавший города Самарканд и Бухару.

**Ключевые слова:** политическая смута, густонаселенные районы, таджики, правление династии Мангит, 220 кварталов, тюрки Жанди, Катагон, (Хафиз) Кунгирот, Дурман, Калмогон, Урусон, Чубутон.

O‘rtal Osiyo xonliklari ichida Buxoro amirligi alohida mavqeiga ega bo‘lgan, katta hududlarni egallagan davlat edi. Manbalarga ko‘ra, XVIII asrning o‘rtalariga kelib Buxoro amirligi hududlarida birmuncha o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu davrda Buxoro hukmdorlari o‘z tasarruflarida Buxoro shahri va uning atrofidagi Vobkent, G‘ijduvon, Qorako‘l, Vag‘oza

tumanlari, Qashqadaryo va Miyonqol vohalarini saqlab qolgan edilar. Xo‘jand, Toshkent, Hisor vaqtiga bilan esa G‘uzor, Shahrisabz, Nurota, shuningdek, Amudaryoning o‘ng sohilidagi Balx, Andxay, Maymana, Badaxshon va Shibirg‘onlar ham Buxoroga vassal bo‘lishiga qaramay unga itoat etmay qo‘yganlar. Siyosiy parokandalikning asosiy sababi-so‘nggi ashtarxoniyalar davridagi o‘zaro kurashlar, markazdan qochuvchi kuchlar mavqeyining o‘sishi edi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ya’ni mang‘itlar sulolasiga hukmronligi o‘rnatalgach, Buxoro amirligi yana asta-sekin mustahkamlana boshlaydi. Shu asrning 70-80 yillariga kelib Buxoro amirligining markaziy hududini Samarcand va Buxoro shaharlarini o‘z ichiga olgan Zarafshon vohasi tashkil qilar edi. XIX asrning boshlariga kelib Buxoro amirligi hududida Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridan tashqari Surxon vohasi, Hisor, Xo‘jand, O‘ratepa, Panjikent kabi aholi zinch joylashgan tumanlar, Janubiy Turkmanistonning katta qismi, jumladan Chorjo‘ydan to Murg‘ob daryosigacha bo‘lgan hududlar kirar edi. Bu davrda Buxoro amirligi hududlarining kengayishiga asosiy sabab – mang‘itlar sulolasining markazlashgan davlat barpo etishga intilishi edi.

XIX asr boshlarida Buxoro amirligi bir tomondan Eron va Afg‘oniston, ikkinchi tomondan Xiva xonligi, uchinchi tomondan qozoq juzlari va to‘rtinchi tomondan Qo‘qon xonligi hududlari bilan chegaradosh edi. Amirlik aholisining katta qismini o‘zbeklar tashkil qilgan bo‘lib, juda ko‘plab o‘zbek urug‘lari vakillari amirlikning tdeyarli barcha yashaganlar. Aholi tarkibidagi tojiklar Samarcand, Buxoro, Nurota, Urgut, Kitob kabi shaharlarda, tog‘li tumanlarda, jumladan, Panjikent, Vaxsh, Hisor, Qorategin, Ko‘lob, Shahrisabz, Qobadiyon, Yakkabog‘ bekliklarida, Zarafshonning yuqori qismida istiqomat qilganlar. Zarafshon vohasida son jihatdan o‘zbeklardan keyingi o‘rinda turuvchi tojiklarning katta bir qismi qadim davrlardan beri ushbu vohaning mahalliy aholisi bo‘lgan.

Ba’zi o‘rinlarda “tojik”, ba’zan esa “tojik tilli” aholi deb atalishining sababi shundaki, ularning katta bir qismi etnik jihatdan tojik bo‘lsalar, sezilarli bir qismi esa tojik tilida so‘zlashuvchi arablardan iboratligidir. Bu holat vohaning ham Samarcand, ham Buxoro viloyatlarida yashovchi arablariga xosdir. Shuningdek, Navoiy viloyatida yashovchi arablarning bir qismi bugungi kunda o‘zaro muloqotda tojik tilidan foydalanadilar. Shunga o‘xshash holat Markaziy Osiyoda, xususan, katta bir qismi O‘zbekiston va Tojikistonda yashovchi arablarda ham ko‘zga tashlanadi. Har ikkala davlatning bir necha viloyatida, ayniqsa, janubiy viloyatlarida yashovchi arablar orasida ham o‘zbek tilida, hamda tojik tilida muloqot qiluvchi arablardan iborat bir necha o‘nlab qishloqlar borligi bu fikrni tasdiqlaydi.

Tojik tilli aholi bilan bog‘liq toponimlar Zarafshon vohasida ham Markaziy Osiyoning ko‘pgina hududlarida bo‘lgani kabi qadim davrlardan boshlab uchray boshlaydi. Zarafshon vohasidagi har uchala viloyatda ham tojikcha -on (mas. Arabon, O‘zbekon, Qalmoqon,

Qarluqon, Sarayon va h.k.), -ho (mas. Arabo, O'zbeko, Qarluqo va h.k.) kabi ko'plik yasovchi topoformantlar bilan birgalikda -zor, -iston, -ob, bolo "yuqori", poyon "quyi", -gar, -do'z singari aholi maskanining geografik o'rni yoki aholi kasb-kori bilan bog'liq joy nomlari anchagina miqdorni tashkil etadi. Ta'kidlash lozimki, XX asr boshlarida Buxoro shahridagi 220 ta mahallaning nomi til jihatidan turfa xil bo'lib, ularning katta bir qismini fors-tojikcha nomlar tashkil etgan. Buxoro mahallalarining sezilarli bir qismini esa arabcha va turkiy (o'zbek) cha nomlardan iborat bo'lган.

Har uchala tilga mansub mahalla nomlarining katta bir qismini antroponomilar, bir qismini esa etnonimlar tashkil qilib, ular orasida o'zbek urug'lari bilan bog'liq shu kabi etnotoponomilar uchraydi: Turki Jandiy, Qatag'on, (Hofiz) Qo'ng'iroq, Durman, Qalmoqon, Uruson, Chubuton. Shuningdek, Buxoroning bir qator mahalalarida yashovchi aholining sezilarli bir qismi o'zlarining kelib chiqishini o'zbek urug'lari bilan bog'lagan bo'lib, ular orasida mang'it (8 ta mahallada), urganji (4 ta mahallada), kenagas (3 ta mahallada), bahrin, batosh, chuyut, nayman, uch-urug', o'zbek-turkman, qalmoq, burqut, qirq-yuz singari urug'lar yoki aholi guruhlari istiqomat qilishgan. Ular orasida mang'itlar nisbatan ko'pchilikni tashkil etib, ba'zi mahallalarda ular o'zaro tojik tilida so'zlashgan bo'lsalar, ayrim mahallalarda esa ushbu urug' vakillari o'zbek tilida so'zlashishgan.

Bu holat urganji, kenagas urug'lari vakillariga ham xos bo'lib, ular har ikkala tilda erkin muloqot qila olganlar. Shunga o'xshash holatni bahrin, burqut, batosh va hokazo kabi Buxoroda yashagan o'zbek urug'lari misolida ko'rish mumkin. Buxoroda aynan mazkur urug' vakillarining o'z etnonimlarining saqlab qolishlari bejiz bo'lmay, ular Buxoro amirligi davrida amirlikda nufuzli urug'lar hisoblanishgan. Ayniqsa, Buxoro amirlari mang'it urug'iga mansub bo'lib, ushbu sulolaga mansub hukmdorlar boshqaruv va harbiy ishlarda urug'doshlariga tayanishi natijasida shaharda mang'it urug'i vakillarining salmog'i oshishiga olib kelgan. Masalan, Kuyi murgkush, Shishaxona, Mir-Do'stum, Qirg'iz-oyim, Mirjon-keldi, Abdullo-qushbegi, Iskandarxonkabi mahallalarda birqator oilalar o'zlarini "o'zbeklarning mang'it urug'iga mansubmiz" deb e'tirof etganlar.

Shuningdek, ayrim mahallalar (Arroki misgaron, Nodir-vays, So'zangaron, Mag'g'oki attoron va h.k.)ning aholisi tojikcha so'zlashib, o'zlarini "tojik" deb hisoblashgan. Bu toifa aholining xo'jalik hayoti va kasb-korida ko'pincha hunarmandchilik ustuvor bo'lib, asosan misgarlik, duradgorlik, novvoylik, bo'yoqchilik, turli buyumlar yashash, tijorat va hokazolar bilan shug'ullanishgan. Mazkur ma'lumotlardan anglashiladiki, XX asrning ilk yarmi, xususan, 20-30 yillarda Buxoro shahri mahalliy aholisi ong sezimi, milliy mansublik masalasida turlichal tushunchalar mayjud bo'lган.

Avvalo, shahar aholisining katta qismi o‘zbek va tojiklardan tashkil etsa-da, har ikkala aholi orasida “etnik-milliy mansublik” masalasida bir qolipdagi yagona tushuncha bo‘lmay, ular “millat” deganda ko‘proq diniy yoki regional mansublikdan kelib chiqishgan, ya’ni mintaqaning islom diniga e’tiqod qiladigan turli xalqlari kabi6 o‘zlarini “musulmon”, “buxoroyi” (“buxorolik”) deb atashgan. Aksariyat mahallalarda tojik tilli aholi o‘zini “o‘zbek” deb tanitib, “tojik” deganda “eroni” (shia mazhabidagi)larni tushunishlarini aytgan bo‘lsalar-da , ulardan farqli o‘laroq Buxoro mahallalarning katta bir qismi o‘zlarini “tojik tilli” deb atab (107 mahalla), ulardan aynan qanchasi etnik mansublik masalasida o‘zlarini “tojik” yoki “o‘zbek” deb ko‘rsatgani aniq emas.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, XX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda Buxoro shahrining demografik holati va joy nomlariga doir amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- Buxoroda mavjud bo‘lgan 220 ta mahalla nomlarining katta qismini antroponimlar tashkil etib, ular diniy (xo‘ja, eshon, hoji, shayx, mir, mullo) va boshqaruvchi toifalar (xon, amir, qushbegi, qozi, mehtar, dorug‘o, mirzo), turli kasb-kor egalari (domullo, tabib), laqab va hokazo shaxs ismlaridan iborat bo‘lgan;
- shahardagi mahalliy aholining katta qismini o‘zbek va tojiklar tashkil etib, o‘zaro muloqot tili tojik tili bo‘lgan. Shuningdek, Buxoro mahallalarining sezilarli bir qismi forslar, yahudiylar, arablardan iborat bo‘lgan. Shuningdek, turkman, tatar, qozoq kabi nisbatan kamchilikni tashkil qiluvchi xonadonlar ham Buxoro shahri mahalliy aholisining tarkibiy bir qismi bo‘lganligini ko‘rshimiz mumkin.

## REFERENCES

1. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOIY-IQTISODIY, MA’NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ И НИНОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.
2. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
3. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
4. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.

5. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 248-256.
6. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI. *Modern Science and Research*, 4(1), 221-227.
7. Srojeva, G., Gulyamov, A., & Haqqulov, M. (2025). XVII ASRDA BUXORODA ABDULAZIZXON MADRASASINING QURILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 471-478.
8. Gulyamov, A., & Ashurov, D. (2025). CHANGES IN THE LIFE OF THE WORLD'S COUNTRIES AFTER WORLD WAR II. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 333-341.
9. Gulyamov, A. (2025). MANG 'ITLAR SULOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 790-798.
10. DYNASTY, M. MANG 'ITLAR SULOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI. Gulyamov Alisher Azizovich.
11. Shodiyeva, S. S., & Qamariddinova, G. A. Q. (2022). Buxoroda islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlar. *Science and Education*, 3(12), 219-225.
12. Akmalovna, Q. G., & Asror, A. A. (2023). Formation of Religious Ceremonies. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(3), 167-172.
13. Saloxov, A., & Qamariddinova, G. A. (2023). BUXORO JADIDLARINING TA'LIM-TARBIYAGA OID G'OYALARINING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 55-69.
14. Salokhov, A. K. (2024). THE YOUNG PEOPLE ARE FORMED, THE ENLIGHTENED-INFORMATORS OF BUKHO USE YOUR IMAGINATION STYLE BASICS. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 3(4), 16-19.
15. Salokhov, A., & Qamariddinova, G. A. (2023). SOCIO-PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL BASIS OF THE CONCEPT OF TOLERANCE. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 200-213.
16. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
17. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlар tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.

18. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
19. Ozodlik va mustaqillik g'oyalarini, A. O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI" Haqqulov Mehriddin Yunusovich.
20. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(11), 154-159.
21. Haqqulov, M. (2025). USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI. Modern Science and Research, 4(1), 663-672.
22. Yunus ogli, H. M. (2023). QADIMGI MESOPOTAMIYA SHAHAR-DAVLATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR.
23. Obid o'g'li, B. O., & Zaynievich, O. M. (2024). BUXORO VA JUNG'OR XONLIKLARI O'RTASIDA SIYOSIY MUNOSABATLAR TARIXI.
24. Boltayev, O. (2024). QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
25. Obid o'g'li, B. O. QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI.
26. Boltaev, O. (2024). BUKHARA'S CARAVAN TRADE AND ITS ROLE ON THE SILK ROAD. *Analytical Journal of Education and Development*, 4(10), 293-297.
27. Boltayev, O. (2024). XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYA VA TURKIYA ITTIFOQINING MARKAZIY OSIYOGA TA'SIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 556-564.
28. Boltayev, O. (2023). A GENERAL DESCRIPTION OF THE POLITICAL AND DIPLOMATIC PROCESSES IN CENTRAL ASIA IN THE MIDDLE OF THE 18TH CENTURY. *Modern Science and Research*, 2(9), 145-149.
29. Юсупович, К. С. . (2024). КРАТКИЙ ОБЗОР НА ВЗАИМООТНОШЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА И ДВИЖЕНИЯ "ТАЛИБАН", НА ФОНЕ ЗАХВАТА ТАЛИБАМИ ВЛАСТИ В АФГАНИСТАНЕ В 2021 ГОДУ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(11), 227–229. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/12432>
30. Yusupovich, K. S. (2024). Abu Hafs Kabir and the Spread of the Hanafi Madhab in Transoxiana. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 204–207. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4079>

31. Каримов Сухроб Юсупович. (2024). ОРДЕН НАКШБАНДИЯ: ИСТОРИЯ, УЧЕНИЕ И ВЛИЯНИЕ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14509878>
32. С. Ю. Каримов. (2025). РОЛЬ ФАЙЗУЛЛЫ ХОДЖАЕВА В ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14741491>
33. Нийозова Гулчехра Шерматовна, & Каримов Сухроб Юсупович. (2025). КУСАМ ИБН АББАС И ИСЛАМИЗАЦИЯ СРЕДНЕЙ АЗИИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14736948>
34. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich, . (2023). STUDY OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN ETHNOLOGICAL SCIENTIFIC WORKS HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 61–68. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-11>
35. Sayfutdinov, F. (2023). ANALYSIS OF DATA ON LAND OWNERSHIP AND LIVESTOCK FARMING OF KARAKALPAKS. *Modern Science and Research*, 2(10), 650–657. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25727>
36. Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich, (2023). USING GIS SOFTWARE AND THE IMPORTANCE OF DIGITAL HISTORY IN THE STUDY OF HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 31–33. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-06>
37. Sayfutdinov, F. (2023). THE IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN TEACHING HISTORY. *Modern Science and Research*, 2(10), 719–723. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24678>
38. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O 'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2 (8), 111–114.
39. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li, Muyiddinov Begali Bahodir o'g'li, & Boltayev Oxun Obid o'g'li. (2025). IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14605977>
40. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li, Muyiddinov Begali Bahodir o'g'li, & Boltayev Oxun Obid o'g'li. (2025). YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA MILLIY TARBIYA VA TA'LIMNING AHAMIYATI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14606021>
41. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li, Muyiddinov Begali Bahodir o'g'li, & Boltayev Oxun Obid o'g'li. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA 1900-1910-YILLARDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOT. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14606101>
42. Muyiddinov Bekali. (2025). ILK O'RTA ASRLARGA OID MUG' ARXIVINING TOPILISHI VA O'RGANILISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14680881>

43. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li, & Tursuntoshova Sabrina Toshpo'lat qizi. (2025). ABU RAYHON BERUNIY ILMIY MEROSIDA TARIX FANINING O'RNI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14735052>
44. Xayrullayev Umidjon Fayzullo o'g'li. (2024). LEGITIMACY OF RULERSHIP IN THE STATE OF CENTRAL ASIA AND IRAN IN ANCIENT TIMES AND THE EARLY MIDDLE AGES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222295>
45. Xarullayev Umidjon. (2024). THE IMPORTANCE OF MEDIA IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(6), 389–391. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12534940>
46. BIRINCHI RADIO EHTIYOTLAR TARIXIDAN. (2024). MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE, 2(4), 657-663. <https://universalpublishings.com/index.php/mpptp/article/view/5240>
47. Xarullayev Umidjon. (2024). RELIGIOUS AND THREATS IN MEDIASPACE. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 593–595. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11311154>
48. Umidjon xayrullayev. (2023). AMIR TEMUR FAOLIYATINING YEVROPALIKLAR TOMONIDAN DASTLABKI E'TIROFI . TADQIQOTLAR.UZ, 25(2), 216–218. Retrieved from <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/309>
49. Nozimov, J. T. (2024). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN FOR FORMATION OF DEVELOPMENT FOR PREPARATION FOR UNIVERSITY. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(5), 575-578.
50. Нозимов Ж. Т. и др. Социально-психологические особенности формирования духовных потребностей в профессиональном развитии студентов //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 455-459.
51. Nozimov, J. (2019). The use of the trainings in developing intercultural competence in students. In Психология образования будущего: От традиций к инновациям (pp. 112-114).
52. Nozimov, J. T., & Usmanova, M. N. (2022). SOCİO-PSYCHOLOGİCAL ASPECTS OF INTERNET ADDİCTİON AMONG STUDENTS. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(10), 49-51.
53. PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN FOR FORMATION OF DEVELOPMENT FOR PREPARATION FOR UNIVERSITY. (2024). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(5), 575-578. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/1502>

54. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.
55. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV- " ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
56. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDARICAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
57. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.
58. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
59. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. *Scholar*, 1(28), 395-401.
60. Toshpo'latova, S., & Hoshimova, M. (2025). BERUNIY VA UNING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 4(1), 344-351.